

## O'ZBEKISTONDA OILAVIY TAKAFULNI JORIY ETISH: HUQUQIY ASOSLAR, MINTAQAVIY TAJRIBA VA AMALGA OSHIRISH YO'LLARI

### FAMILY TAKAFUL IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN: LEGAL FOUNDATIONS, REGIONAL EXPERIENCE AND IMPLEMENTATION PATHWAYS

*O'zbekiston Respublikasi  
Bank-moliya akademiyasi  
Mustaqil izlanuvchi  
Usmanov Nematjon Gulomovich  
nejon@live.com  
+998998554400*

#### ANNOTATSIYA

Ushbu maqola O'zbekistonda oilaviy takaful sug'urta tizimini joriy etishning huquqiy, iqtisodiy va diniy-axloqiy asoslarini kompleks tarzda tahlil etadi. Tadqiqotda 2026-yil 27-martda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining O'RQ-son "Islom bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni va unga hamroh bo'lgan me'yoriy hujjatlar, Markaziy bank tomonidan 2024-yil 26-iyulda tasdiqlangan 3536-son Nizom tahlil qilinadi. Qo'shni mamlakatlar — Qirg'iziston, Qozog'iston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlarining takaful sohasidagi qonunchilik tajribasi qiyosiy huquqiy tahlil asosida o'rganiladi. BMTning 2024-yil dekabrda Tashkentdagi takaful bo'yicha «yumaloq stol» sessiyasi natijalari va 2025-yildagi amaliy tayyorlov treninglari maqolaning empirik asosini tashkil etadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, aholining 68 foizi an'anaviy bank xizmatlaridan diniy e'tiqod sababli foydalanmasligini inobatga olgan holda, oilaviy takaful O'zbekiston moliya bozorida muhim bo'shliqni to'ldirishi va moliyaviy inklyuzivlikni sezilarli darajada oshirishi mumkin. Maqolada oilaviy takafulni joriy etish uchun zarur bo'lgan minimal qonunchilik bazasi, shariatga mos boshqaruv tizimi va regulyatorlik modeli taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** oilaviy takaful, islom sug'urtasi, islom bank faoliyati, moliyaviy inklyuzivlik, O'zbekiston, Qirg'iziston, Markaziy Osiyo, shariat, mutuellik tamoyili, regulyatorlik.

#### ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the legal, economic, and religio-ethical foundations for implementing a family takaful insurance system in Uzbekistan. The study examines the Law of the Republic of Uzbekistan No. LRU-1126 'On Islamic Banking Activities', adopted on March 27, 2026, along with accompanying normative acts, including Regulation No. 3536 approved by the Central Bank on July

26, 2024. Through a comparative legal analysis, the legislative experiences of neighboring countries — Kyrgyzstan, Kazakhstan, and other Central Asian states — in the takaful sector are systematically examined. The empirical foundation of the article rests on the outcomes of UNDP's takaful roundtable session held in Tashkent in December 2024 and the practical training conducted in June 2025. The research demonstrates that, given that 68% of the population refrains from conventional banking services for religious reasons, family takaful has the potential to fill a significant gap in Uzbekistan's financial market and substantially advance financial inclusion. The article proposes the minimum legislative framework, Shariah-compliant governance structure, and regulatory model necessary for family takaful implementation.

**Keywords:** family takaful, Islamic insurance, Islamic banking, financial inclusion, Uzbekistan, Kyrgyzstan, Central Asia, Shariah, mutual aid principle, regulatory framework.

## 1. KIRISH

Islom moliyasi — jahon miqyosida jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan soha bo'lib, 2024-yilga kelib global takaful bozorining hajmi 30,5 milliard AQSh dollarini tashkil etdi hamda 2028-yilga qadar 42–45 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda (Global Growth Insights, 2026). Takafulning yillik o'sish sur'ati 12–14 foizni tashkil etib, an'anaviy sug'urtaning o'sish ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada ustun turmoqda. Bu tendensiya Markaziy Osiyo mintaqasida ham kuzatilmogda: Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston islom moliyasi infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha faol chora-tadbirlar ko'rmoqda.

O'zbekiston uchun bu masala ayniqsa dolzarbdir. BMTning O'zbekistondagi tadqiqoti ko'rsatganidek, aholining 68 foizi va tadbirkorlarning 60 foizi diniy e'tiqodlari sababli an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanishni istamaydi (UNDP, 2024). Bu holat nafaqat moliyaviy inklyuzivlik muammosini keskinlashtiradi, balki keng aholi qatlamlarini hayot sug'urtasi va tibbiy sug'urtaning muqobil shakllari — xususan oilaviy takafuldan — mahrum qiladi.

Oilaviy takaful (Family Takaful) — ishtirokchilar o'zaro yordam asosida bir-birlarini hayot xavflari, kasallik va boshqa muammolardan himoya qilish maqsadida ixtiyoriy to'lovlar (tabarro') orqali umumiy jamg'arma (takaful fondi) shakllantiradigan shariat normalariga mos sug'urta tizimi. Bu mexanizm an'anaviy sug'urtadan tubdan farq qiladi, chunki riba (foiz), gharar (noaniqlik) va maysir (qimor) elementlarini tamomila istisno etadi.

2026-yil 27-martda O'zbekiston Respublikasida O'RQ-son "Islom bank faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilinishi mamlakat moliya tizimida tarixiy burilish nuqtasi bo'ldi. Ushbu qonun islom bank faoliyati uchun mustaqil litsenziya tizimini joriy etdi, islom moliyaviy operatsiyalar ro'yxatini tasdiqladi va Markaziy bank

huzurida Islom moliyasi kengashini tashkil etdi. Biroq sug'urta sohasida — xususan takaful sohasida — alohida me'yoriy bazaning yo'qligi hali ham hal etilishi zarur bo'lgan dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda oilaviy takafulni joriy etishning huquqiy asoslarini ilmiy jihatdan tadqiq etish, qo'shni mamlakatlar — birinchi navbatda Qirg'iziston va Qozog'istonning — tajribasini qiyosiy tahlil qilish hamda O'zbekiston sharoitida amalga oshirish uchun maqbul regulyatorlik modeli va qonunchilik talablarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi usullarni o'z ichiga oladi: huquqiy tahlil (normative analysis), qiyosiy huquqshunoslik (comparative law), hujjatli tahlil (documentary analysis) va mintaqaviy iqtisodiy tahlil. Tadqiqotning birlamchi manbalar bazasini O'zbekiston va Qirg'izistonning me'yoriy hujjatlari, BMTT hisobotlari, Islom taraqqiyot banki materiallar va AAOIFI (Islom moliyaviy institutlar uchun buxgalteriya va auditing tashkiloti) standartlari tashkil etadi.

## **2. ADABIYOTLAR SHARHI**

### **2.1. Takaful: nazariy asoslar va global rivojlanish**

Takaful atamasi arabcha "kafala" (kafolat berish, bir-birini himoya qilish) so'zidan olingan bo'lib, islom fiqhida "ta'awun" (o'zaro yordam) va "tabarru" (xayr-ehson niyatida to'lov) tamoyillariga asoslanadi. Alshammari, Altwijry va Abdul-Wahab (2024) tomonidan 47 mamlakatni qamrab olgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, takafulning qonunchilik bazasi har xil davlatlarda turlicha shakllangan: ba'zilarida u an'anaviy sug'urtaga qo'shimcha tarzda, boshqalarida esa mustaqil qonun orqali tartibga solinadi.

Oilaviy takafulning nazariy modellari haqida ilmiy adabiyotlarda uchta asosiy model ajratiladi: (1) Muzoraba modeli — operatorning vositachilik foydasi ishtirokchilar fondi daromadidan taqsimlanadi; (2) Vakala modeli — operator belgilangan haq (vaqolat haq) oladi; (3) Aralash (gibrid) model — ikki modelning elementlarini birlashtiradi va AAOIFI standartlariga ko'ra eng tavsiya etilgan hisoblanadi. Mavsiya va boshqalar (2021) tadqiqotiga ko'ra, Malayziya va Indonesia tajribasi shuni ko'rsatadiki, oilaviy takaful an'anaviy hayot sug'urtasiga nisbatan ishtirokchilar o'rtasidagi ishonch darajasi yuqori bo'lganda yanada samarali ishlaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasida takafulning rivojlanishiga doir tadqiqotlar hali nisbatan oz. Emerald nashriyoti jurnalida chop etilgan Alshammari va boshqalar (2024) tadqiqoti Markaziy Osiyo mamlakatlarida — jumladan O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonda — takaful operatsiyalarining dastlabki shakllari paydo bo'layotganini, ammo huquqiy bazaning hanuz shakllanish jarayonida ekanini qayd etadi. Turkmaniston esa hali takaful faoliyati mavjud bo'lmagan mintaqadagi yagona mamlakat sifatida ko'rsatiladi.

### **2.2. Moliyaviy inklyuzivlik va islom sug'urtasi**

Moliyaviy inklyuzivlik nazariyasi nuqtai nazaridan takaful kamhaytan aholini sug'urta xizmatlariga jalb etishning muhim vositasi hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilga kelib O'zbekistonda aholi bank xizmatlari bilan qamrab olinish darajasi 60 foizga yetgan, ammo bank xizmatlari bilan qamrab olinmagan aholining ulushi 40 foizni tashkil etgan (World Bank, 2024). Fitch Ratings (2026) tahlilchilari Markaziy Osiyo mamlakatlarida — jumladan O'zbekistonda — islom moliyasi tizimining rivojlanishi moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va Yaqin Sharq mamlakatlaridan kapital jalb etish uchun muhim omil ekanini ta'kidlaydi.

UNDP va IsDB tomonidan 2023-yilda nashr etilgan "Insuring a Sustainable Future: Building Climate Resilience Through Takaful" hisobotida takafulning nafaqat an'anaviy sug'urta bo'shliqlarini to'ldirish, balki iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlaridan himoya qilish mexanizmi sifatida ham katta salohiyatga egaligi asoslab berilgan.

### **3. O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI VA SUGHURTA SOHASIDAGI QONUNCHILIK BAZASI**

#### **3.1. Islom bank faoliyatiga doir qonunchilik: tarixiy jarayon**

O'zbekistonda islom moliyasini joriy etish g'oyasi 2018-yilda Prezident tomonidan muhokamaga qo'yilgan loyiha hujjatlarida ilk bor rasmiy ko'rinish oldi. 2022-yil avgust oyida tadbirkorlar bilan bo'lgan uchrashuvda yana ko'tarilib, 2023-yil noyabrda esa Prezident Shavkat Mirziyoyev mikrofinans tashkilotlari uchun islom moliyasi xizmatlarini ko'rsatish me'yoriy bazasini yaratishni topshirdi.

2024-yil avgust oyida Prezident islom bank faoliyati qonun loyihasini ishlab chiqish haqida e'lon qilib, ushbu sohadagi potentsial moliyaviy resurslarni yiliga 5 milliard AQSh dollari deb baholadi. Markaziy bank islom moliyaviy xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida Nizom tayyorladi va uni Adliya vazirligiga davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun yubordi (Spot.uz, 2025). 2024-yil 26-iyulda Markaziy bankning 3536-son Qarori ro'yxatdan o'tkazildi — bu mikrofinans tashkilotlari tomonidan islom moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatish tartibini belgilovchi birinchi rasmiy me'yoriy hujjat bo'ldi.

Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi islom bank faoliyatiga oid qonun loyihasini asosiy va yakuniy o'qishlarda qabul qildi. 2026-yil 5-fevralda esa Senat ushbu qonunni ma'qulladi. Qonun ikkita Kodeksga va yettita amaldagi qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritdi. 2026-yil 27-martda O'zbekiston Respublikasining O'RQ-son «Islom bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni rasmiy kuchga kirdi.

#### **3.2. O'RQ-son Qonunining asosiy qoidalari**

O'RQ-son Qonunining mazmuni quyidagi muhim jihatlarni o'z ichiga oladi: islom banki faoliyatining huquqiy ta'rifi belgilandi; islom moliyaviy operatsiyalari, standartlari va investitsion omonatlar tushunchalari qonunchilikda mustahkamlandi; islom banki faoliyatini amalga oshirish uchun alohida litsenziya joriy etildi; ruxsat

etilgan islom moliyaviy operatsiyalar ro'yxati tasdiqlandi; banklarga cheklovsiz savdo faoliyati bilan shug'ullanish, kompaniyalar tuzish, ulush va aksiyalar sotib olish huquqi berildi; soha faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida Markaziy bank va banklar huzurida Islom moliyasi kengashlari tashkil etildi; islom moliyaviy operatsiyalarining o'ziga xos soliqqa tortish tartibi belgilandi.

Ushbu qonun O'zbekiston moliya tizimini islomiy me'yorlarga moslashtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Biroq qonun asosan bank faoliyatini tartibga solishga qaratilgan bo'lib, sug'urta sohasini va xususan takaful institutini qamrab olmaydi. Bu holat keyingi qonunchilik islohotlari uchun dolzarb muammo sifatida qolmoqda.

### **3.3. Sug'urta sohasidagi amaldagi holat va takafulga oid bo'shliqlar**

Amaldagi O'zbekiston qonunchiligi doirasida sug'urta faoliyati "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonun (1993-yil, keyinchalik qayta tahrirlangan) asosida tartibga solinadi. Ushbu qonunda takaful yoki islom sug'urtasi tushunchasi umuman mavjud emas. Sug'urta bozorini tartibga solish vakolati 2024-yildan boshlab Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga (NAPP) o'tkazildi va aynan shu tashkilot takaful bozorini rivojlantirish bo'yicha tadqiqot va tayyorlov ishlarini olib bormoqda.

2024-yil 1-martda Prezidentning farmoni bilan O'zbekiston sug'urta zaxiralariga oid Solvency II-ga asoslangan yangi siyosat kuchga kiritildi. Bu islohotlar sug'urta tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish yo'lida muhim qadam bo'ldi, biroq takafulning o'ziga xos zaxira shakllantirish mexanizmlarini hisobga olmaydi.

2024-yil 6-dekabr kuni Toshkentda BMTT va NAPP hamkorligida o'tkazilgan «Yumaloq stol» kengashida 40 dan ortiq ishtirokchi — sug'urta regulyatori, sug'urta kompaniyalari vakillari, Islom taraqqiyot banki, Xalqaro islom akademiyasi, Din ishlari qo'mitasi, O'zbekiston Muslmonlar idorasi mutaxassislari — takafulni joriy etish bo'yicha muammo va istiqbollarni muhokama qildi. Takaful bozorining kutilayotgan hajmi, minimal zarur qonunchilik bazasi va Shariat nazorat kengashining roli masalalari alohida ko'rib chiqildi. Keyinchalik, 2025-yil 25–26 iyun kunlari Toshkentda BMTT tomonidan sug'urta bozori regulyatori va soha mutaxassislari uchun "Takafulni amaliyotda joriy etish" mavzusida ikki kunlik trening o'tkazildi.

## **4. QO'SHNI MAMLAKATLAR TAJRIBASI: QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL**

### **4.1. Qirg'iziston: mintaqada takafulda etakchi davlat**

Qirg'iziston Markaziy Osiyo mintaqasida takafulni qonunchilik darajasida rasmiylashtirgan etakchi davlatga aylandi. 2024-yil 29-aprelda Qirg'iziston Respublikasi Prezidenti Sadyr Japarov "Sug'urta va sug'urta faoliyati to'g'risida" yangi tahrirlangan qonunni imzoladi. Ushbu qonun xalqaro standartlar — xususan, Xalqaro sug'urta nazorati assotsiatsiyasi (IAIS) tamoyillariga muvofiq sug'urta qonunchiligini modernizatsiya qilish va uyg'unlashtirish maqsadida ishlab chiqildi.

Yangi qonunda islom sug'urtasi «Takaful», vaqtinchalik va annuitet sug'urti kabi yangi sug'urta turlari rasmiy ravishda mustahkamlandi. Sug'urta va qayta sug'urta tashkilotlari uchun yangi normalarga muvofiq faoliyat yuritish bo'yicha olti oylik o'tish muddati belgilandi. Barcha yangi sug'urta turlariga litsenziya berish vakolati Davlat moliya nazorati xizmatiga (GosFinNadzor) yuklatildi.

2026-yil mart oyida esa Qirg'iziston Hukumati islom (takaful), majburiy va annuitet sug'urtasiga qo'yiladigan talablarni tasdiqlovchi maxsus qaror qabul qildi. Ushbu hujjat xalqaro standartlarni joriy etdi va shariat normalari bo'yicha o'zaro yordam mexanizmlari orqali aktivlarni himoya qilishning huquqiy bazasini yaratdi. Takafulning an'anaviy sug'urtadan asosiy farqi sifatida hamkorlik tamoyili belgilandi: fond ishtirokchilari ixtiyoriy to'lovlar (tabarro') orqali umumiy kapital shakllantirib, sug'urta hodisasi yuz berganda zararni ushbu mablag'lar hisobidan qopladilar.

Amaliy jihatdan, Qirg'izistonda takaful tizimini joriy etish yo'lidagi dastlabki muhim qadam 2023-yil avgust oyida qo'yildi. Xususan, mamlakatdagi "Dordoy Sug'urta" kompaniyasi huzurida birinchi islom sug'urtasi " oynasi" (Islamic Insurance Window) faoliyati yo'lga qo'yildi. Mazkur mexanizm an'anaviy sug'urta kompaniyasi tarkibida shariat tamoyillariga mos sug'urta xizmatlarini ko'rsatishga imkon berib, Markaziy Osiyo mintaqasida takaful xizmatlarini amaliyotga tatbiq etish borasidagi ilk tashabbus sifatida e'tirof etildi. Ushbu tajriba islom moliyasi institutlarini rivojlantirish hamda aholining shariat talablariga mos moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish yo'lida muhim ahamiyat kasb etdi.

Takaful tizimiga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj keyingi yillarda ham ortib bordi. Jumladan, 2025-yil yanvar oyida Bishkek shahrida islom moliyasini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan biznes-forum davomida Moliya bozorini tartibga solish va nazorat qilish xizmati rahbari Marat Pirnazarov mamlakatda takaful xizmatlariga real talab mavjudligini ta'kidladi. U o'z nutqida aholining islomiy moliyaviy mahsulotlarga bo'lgan qiziqishi ortib borayotganini qayd etib, takaful tizimini milliy sug'urta bozoriga joriy etish nafaqat dolzarb, balki zarur choraga aylanganini ta'kidladi. Ushbu bayonot Qirg'iziston hukumati va moliyaviy regulyatorlarining islom moliyasi, xususan, takaful sektorini rivojlantirishga nisbatan ijobiy yondashuvini namoyon etadi hamda kelgusida ushbu yo'nalish bo'yicha huquqiy va institutsional asoslarni yanada takomillashtirish uchun muhim zamin yaratadi.

#### **4.2. Qozog'iston: huquqiy bazasi mavjud, biroq rivojlanish muammolari bor**

Qozog'iston Markaziy Osiyoning yirik iqtisodiyoti va islom moliyasi sohasida eng rivojlangan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Qozog'iston sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunning 6-1-bobida islom (takaful) sug'urtasiga oid qoidalar mustahkamlangan — bu mamlakat aholisiga shariat tamoyillariga mos sug'urta shartnomalarini tuzish imkonini beradi. Moliya bozorini tartibga solish va rivojlantirish agentligi (ARDFM) sug'urta tarmog'i ustidan nazoratni amalga oshiradi.

2020-yilda Astana Xalqaro Moliya Markazi (AIFC) tomonidan Qozog‘iston uchun Islom moliyasi yo‘l xaritasi (2020-yil) tasdiqlandi. Ushbu hujjat mamlakatni mintaqaviy islom moliyasi markaziga aylantirish maqsadida yaratilgan bo‘lib, takaful bozorini rivojlantirish bo‘yicha alohida bo‘limni o‘z ichiga oladi. 2026-yil mart oyida Qozog‘iston an’anaviy banklarga islom bank «oynasi» ochish huquqini beruvchi yangi bank qonunini qabul qildi — bu qadam islom moliyaviy mahsulotlariga keng qatlam foydalanuvchilarning kirishini osonlashtirdi.

Qozog‘iston tajribasining asosiy sabog‘i shundan iboratki, qonunchilik bazasi mavjud bo‘lsa-da, amaliy takaful bozori hali to‘la rivojlanmagan. Buning sabablari: shariat bo‘yicha malakali mutaxassislarning tanqisligi, takaful mahsulotlariga oid tushuntiruv ishlarining zaifligi va bozor ishtirokchilari o‘rtasida yetarli raqobat muhitining shakllanmaganligi.

### **4.3. Tojikiston: islom moliyasida dastlabki qadamlar**

Tojikistonda islom moliyasi tizimining shakllanishi 2014-yilda “Islom bankchiligi faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. Mazkur qonun mamlakatda islom banklari, islomiy moliyaviy institutlar hamda shariat talablariga mos moliyaviy xizmatlarni tashkil etish va tartibga solishning huquqiy asoslarini yaratdi (National Bank of Tajikistan, 2019). Qonun qabul qilinganidan keyin Tojikiston Milliy banki tomonidan islom moliyasi institutlari faoliyatini nazorat qilishga qaratilgan yigirmadan ortiq me‘yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi hamda Islom bankchiligi xizmatlari bo‘yicha maslahat kengashi tashkil etildi (Mughal, 2023).

Mamlakatda islom moliyasining dastlabki institutlari bank sektoridan avval mikromoliyalashtirish va lizing yo‘nalishlarida shakllandi. Xususan, 2013-yilda Asr Leasing islomiy lizing kompaniyasi, 2014-yilda esa Alif Capital nomli islomiy mikromoliyalashtirish tashkiloti faoliyat boshladi. Keyinchalik Alif Capital bank litsenziyasini olib, Alif Bank sifatida faoliyat yurita boshladi hamda raqamli moliyaviy xizmatlar bozorida yetakchi o‘rinlardan birini egalladi (Mughal, 2023).

Tojikistonda to‘laqonli islom bankchiligining shakllanishida muhim voqea 2019-yilda yuz berdi. Sobiq Sohibkorbank negizida tashkil etilgan Tawhidbank (Tavhidbank) Tojikiston Milliy bankidan islom banki sifatida faoliyat yuritish uchun litsenziya oldi va mamlakatning birinchi to‘laqonli islom bankiga aylandi (National Bank of Tajikistan, 2019). Tadqiqotchilar ushbu voqeani Tojikiston moliya tizimida islom moliyasining institutsional bosqichga o‘tishi sifatida baholaydilar (Asia Plus, 2019).

So‘nggi yillarda mamlakatda islom moliyasi sektori yuqori o‘sish sur‘atlarini namoyon etmoqda. Xalqaro ekspertlarning baholashlariga ko‘ra, 2025-yil yakuniga

kelib Tawhidbank va Alif Bankning umumiy aktivlari mamlakat bank tizimi aktivlarining qariyb 6 foizini tashkil etgan, islom moliyasi sektori esa 2021–2025-yillar davomida o‘rtacha 38,5 foizlik yillik o‘sish sur‘atini qayd etgan. Bu ko‘rsatkichlar Tojikistonni Markaziy Osiyodagi eng tez rivojlanayotgan islom moliyasi bozorlaridan biriga aylantirmoqda (Eurasian Development Bank, 2025).

Biroq islom moliyasining sug‘urta segmenti — takaful sohasi hali rivojlanishning boshlang‘ich bosqichida qolmoqda. Mamlakatda islom bankchiligi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik mavjud bo‘lsa-da, takaful va retakaful xizmatlarini tartibga soluvchi maxsus qonunchilik bazasi hozircha shakllantirilmagan. Shu bilan birga, 2022-yilda Tawhidbank va AlHuda CIBE o‘rtasida Tojikistonda takaful operatorini tashkil etish istiqbollari o‘rganishga qaratilgan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan (Mughal, 2023). Bu esa mamlakatda islom sug‘urtasi bozorini shakllantirish bo‘yicha dastlabki institutsional tashabbuslardan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, Tojikiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mamlakatda islom bankchiligi va fintech xizmatlari nisbatan muvaffaqiyatli rivojlanayotgan bo‘lsa-da, takaful sektori hali huquqiy va institutsional shakllanish bosqichida turibdi. Kelgusida maxsus takaful qonunchiligini qabul qilish, shariat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish hamda xalqaro islom moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish ushbu yo‘nalishning rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin.

#### **4.4. Ozarbayjon: davlat siyosati doirasida islom moliyasi**

Ozarbayjonda islom moliyasini rivojlantirish so‘nggi yillarda davlat moliyaviy siyosatining istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Mamlakat aholisining muayyan qismi hali ham an‘anaviy bank xizmatlaridan to‘liq foydalanmayotgani sababli, islom moliyasi moliyaviy inklyuzivlikni oshirish vositasi sifatida ko‘rilmoqda. Jahon banki ma‘lumotlariga asoslangan Fitch Ratings tahliliga ko‘ra, 2024-yilda Ozarbayjon aholisining qariyb 44 foizi bank xizmatlaridan foydalanmagan bo‘lib, bu ko‘rsatkich islom moliyasi mahsulotlariga bo‘lgan potensial talabning mavjudligini ko‘rsatadi (Fitch Ratings, 2026).

2025–2026-yillardan boshlab Ozarbayjon Markaziy banki mamlakatda islom moliyasi institutlarini joriy etish bo‘yicha tizimli islohotlarni boshladi. Dastlabki bosqichda “Islamic Window” (islomiy oyna) modeli tanlandi. Ushbu modelga ko‘ra, an‘anaviy banklar tarkibida shariat talablariga muvofiq moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar ko‘rsatadigan alohida bo‘linmalar tashkil etilishi nazarda tutilgan. 2026-yilning birinchi yarmida ikki tijorat banki Markaziy bankning “regulyativ qumloq” (regulatory sandbox) dasturi doirasida islomiy moliyaviy mahsulotlarni sinov tariqasida taklif eta boshladi (Fitch Ratings, 2026).

Islom moliyasini joriy etish jarayonida huquqiy bazani takomillashtirish ham ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, Fuqarolik kodeksi, “Banklar to‘g‘risida”gi qonun, Soliq kodeksi hamda moliyaviy xizmatlarni tartibga soluvchi

boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Mazkur o'zgartirishlar islom moliyasi operatsiyalarining huquqiy maqomini aniqlashtirish, ularni an'anaviy moliyaviy operatsiyalar bilan teng soliq sharoitlariga keltirish va shariatga muvofiq moliyaviy instrumentlarni qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan (Moody's, 2025; Central Bank of Azerbaijan, 2026).

Xalqaro reyting agentliklari Ozarbayjonda islom moliyasining rivojlanish istiqbollari ijobiy baholamoqda. Fitch Ratings ekspertlarining fikricha, mamlakatda muvaffaqiyatli islom moliyasi ekotizimini shakllantirish uchun puxta tartibga solish tizimi, shariat nazorati mexanizmlari, malakali kadrlar tayyorlash va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi (Fitch Ratings, 2026).

Takaful sektori bo'yicha ham dastlabki istiqbollar shakllanmoqda. Hozircha mamlakatda mustaqil takaful operatorlari faoliyat yuritmasa-da, islom moliyasiga oid qonunchilikni takomillashtirish jarayonlari kelgusida takaful va retakaful xizmatlarini joriy etish uchun zarur institutsional asoslarni yaratishi kutilmoqda. Shuningdek, Ozarbayjon hukumati va Markaziy banki tomonidan Fors ko'rfazi mamlakatlari investorlarini jalb etish, Islom taraqqiyot banki bilan hamkorlikni kengaytirish hamda sukuk bozorini rivojlantirish bo'yicha qator tashabbuslar ilgari surilmoqda (Fitch Ratings, 2026).

Umuman olganda, Ozarbayjon tajribasi islom moliyasini rivojlantirishda davlatning faol ishtiroki muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Mamlakatda hozircha islom bankchiligi va takaful sektori shakllanish bosqichida bo'lsa-da, amalga oshirilayotgan huquqiy va institutsional islohotlar kelgusida ushbu bozorning jadal rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi mumkin.

#### 4.5. Qiyosiy jadval: Markaziy Osiyo mamlakatlari takaful qonunchiligi

##### 1-jadval: Markaziy Osiyo davlatlarida takaful sohasidagi qonunchilik holati (2026-yil holatiga ko'ra)

Davlat	Takaful bo'yicha maxsus qonunchilik	Asosiy normativ-huquqiy hujjatlar	Amaliy holat	Regulyator
<b>Qirg'iziston</b>	Mavjud	“Sug'urta faoliyati to'g'risida”gi Qonunga 2024-yilda kiritilgan o'zgartirishlar;	2023-yilda “Dordoy Sug'urta” kompaniyasi huzurida birinchi	Moliya bozorini tartibga solish va nazorat qilish xizmati (GosFinNadzor)

		Vazirlar Mahkamasining takaful faoliyatini tartibga soluvchi qarorlari (2026)	takaful oynasi tashkil etilgan	
<b>Qozog‘iston</b>	Qisman mavjud	“Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning islom sug‘urtasiga oid 6-1-bobi; AIFC Islom moliyasi yo‘l xaritasi (2020)	Islom sug‘urtasi xizmatlari AIFC platformasi orqali rivojlantirilmoqda	Moliya bozorini tartibga solish va rivojlantirish agentligi (ARDFM)
<b>O‘zbekiston</b>	Mavjud emas (ishlab chiqilmoqda)	O‘RQ–998-son Qonun (2026) – islomiy moliyalashtirish bo‘yicha normalar; takaful bo‘yicha alohida qonun mavjud emas	BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) treninglari (2025), ilmiy-amaliy davra suhbatlari (2024) o‘tkazilgan	Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP)
<b>Tojikiston</b>	Mavjud emas	“Islom bankchiligi faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun; takaful bo‘yicha maxsus normativ hujjatlar mavjud emas	Tawhidbank va Alif Bank faoliyati rivojlanmoqda, takaful amaliyoti shakllanmagan	Tojikiston Milliy banki
<b>Ozarbayjon</b>	Qisman mavjud	Bank qonunchiligida	Islomiy bank oynalari (Islamic	Ozarbayjon Markaziy banki

		islom moliyasiga oid normalar; islomiy bank oynalarini joriy etish bo'yicha normativ hujjatlar	Window) modeli sinov tariqasida joriy etilmoqda	
<b>Turkmaniston</b>	Mavjud emas	Islom moliyasi yoki takafulga oid maxsus huquqiy baza mavjud emas	Takaful yoki islom sug'urtasi faoliyati aniqlanmagan	Maxsus regulyator mavjud emas

*Manba: muallif tomonidan o'rganilgan me'yoriy hujjatlar asosida tuzilgan*

## 5. OILAVIY TAKAFUL: MODEL, MAHSULOTLARI VA BOSHQARUV TIZIMI

### 5.1. Oilaviy takafulning mohiyati va asosiy modellari

Oilaviy takaful — shariat tamoyillariga mos bo'lgan va tijorat sug'urtasining islomiy muqobili sifatida rivojlangan moliyaviy himoya tizimi. U an'anaviy hayot sug'urtasidan quyidagi asosiy belgilari bilan farqlanadi: (1) ishtirokchilar operator emas, balki bir-birlarini kafolatlaydilar; (2) to'lovlar tabarru' (xayr-ehson niyatida ixtiyoriy hissa) sifatida ko'rib chiqiladi; (3) fondagi ortiqcha mablag'lar ishtirokchilarga qaytariladi yoki keyingi davrga ko'chiriladi; (4) fond mablag'lari faqat shariat me'yorlariga mos vositalar orqali investitsiyalanadi.

Oilaviy takafulning uchta asosiy modeli mavjud. Birinchi — Mudharaba modeli: operator (mudharib) boshqarish xizmatiga yarasha takaful fondi daromadining ma'lum qismini oladi. Ikkinchi — Wakala modeli: operator ishtirokchilardan oldindan belgilangan vaqolat haqi (agent haqini) undirib, fondni boshqaradi. Uchinchi — Aralash (Hybrid) modeli: ikki modelni birlashtiradi — zaxiralar boshqaruvi uchun wakala, investitsiyalar boshqaruvi uchun esa mudharaba qo'llaniladi. AAOIFI standartlari va zamonaviy ilmiy adabiyot aralash modelni eng maqbul deb hisoblaydi, chunki u operator va ishtirokchilar manfaatlarini muvozanatlashtirishda samaraliroq.

### 5.2. Oilaviy takafulning asosiy mahsulotlari

Oilaviy takaful mahsulotlarining asosiy turlari quyidagilardan iborat: (1) Hayotni himoya qilish takafuli – vafot, nogironlik va xavfli kasalliklar xavflariga qarshi himoya; (2) Ta'lim takafuli – farzandlar ta'lim xarajatlarini moliyalash uchun uzoq muddatli jamg'arma; (3) Pensiya takaful – nafaqa yoshida daromad olish maqsadida jamg'arma shakllantirish; (4) Tibbiy takaful – sog'liqni saqlash xarajatlarini

qoplash; (5) Ipoteka takafuli – uy-joy kreditini qaytara olmaslik xavfiga qarshi himoya. Malayziya va Indoneziya tajribasi ko'rsatadiki, ta'lim takafuli – ayniqsa musulmon oilalari orasida – eng mashhur mahsulotlardan biri hisoblanadi, chunki u diniy qiymat (bolalar tarbiyasiga hissa) va moliyaviy foyda (jamg'arma va himoya)ni muvofiqlashtiradi.

### **5.3. Boshqaruv tizimi: Shariat Nazorat Kengashi**

Oilaviy takafulning to'g'ri va shifoflik bilan ishlashi uchun Shariat Nazorat Kengashi (Shariah Supervisory Board – SSB) muhim rol o'ynaydi. Kengash vazifalari: barcha mahsulotlar va shartnomalar shakllarining shariat me'yorlariga muvofiqligini tekshirish; investitsiya portfelining halolligini nazorat qilish; yillik shariat auditi hisobotini tayyorlash; shariat nuqtai nazaridan bahsli masalalarda fatvolar chiqarish. O'zbekiston uchun ushbu kengashni tashkil etishda O'zbekiston Muslmonlar idorasi bilan hamkorlik zarur bo'lib, bu 2024-yilgi Yumaloq stol muhokamalarida ham alohida qayd etildi.

## **6. O'ZBEKISTONDA OILAVIY TAKAFULNI JORIY ETISH: REGULYATORLIK MODEL VA TAVSIYALAR**

### **6.1. Zarur minimal qonunchilik bazasi**

2024-yilgi Toshkent Yumaloq stoli muhokamalarida takafulni joriy etish uchun zarur minimal qonunchilik bazasi masalasi markaziy o'rin egalladi. Tadqiqot va mintaqaviy tajriba tahlili asosida quyidagi eng zarur qonunchilik asoslari belgilandi. Birinchi navbatda amaldagi «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi qonunga takaful va oilaviy takafulning huquqiy ta'rifi, tabarro' va wakala tushunchalari, Shariat Nazorat Kengashi maqomiga oid qoidalar kiritilishi zarur. Ikkinchidan, Markaziy bank yoki NAPP tomonidan takaful operatorlari uchun alohida litsenziyalash talablari va minimall kapital miqdori belgilanishi lozim. Uchinchidan, zaxiralar shakllantirishning takafulga xos mexanizmlari uchun soliqqa tortishning neytral (tax-neutral) tizimi, ya'ni tabarro' to'lovlarining soliqdagi holati aniqlanishi kerak.

### **6.2. Regulyatorlik modeli**

O'zbekiston uchun qiyosiy tahlil asosida uch bosqichli amalga oshirish modeli taklif etiladi. Birinchi bosqich (2026–2027): An'anaviy sug'urta kompaniyalari ichida «islom sug'urta oynasi» (Islamic Insurance Window) tizimini joriy etish. Bu Qirg'izistonda qo'llanilgan yondashuvga o'xshash bo'lib, alohida kapital va fonda talab qilinmaydi, shuningdek operatorlar uchun qo'shimcha litsenziya emas, balki mavjud litsenziyaga qo'shimcha shart-sharoit belgilanadi. Ikkinchi bosqich (2027–2029): To'liq takaful operatorlari uchun alohida litsenziyalash tartibini joriy etish, Shariat Nazorat Kengashi talablarini belgilash va NAPP tomonidan takaful uchun maxsus prudensial talablar (kapital etariligi, zaxira shakllantirish) ishlab chiqish. Uchinchi bosqich (2030+): Qayta-takaful (retakaful) bozorini rivojlantirish,

mintaqaviy hamkorlik (xususan Qirg'iziston va Qozog'iston bilan) va oilaviy takaful mahsulotlarini davlat ijtimoiy himoya dasturlari bilan integratsiyalash.

### **6.3. Bozor salohiyati va prognozlar**

O'zbekiston aholisi 36 milliondan oshib, ularning 90 foizdan ko'prog'i musulmonlardir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, aholining 68 foizi an'anaviy bank va sug'urta xizmatlaridan diniy sabablarga ko'ra foydalanmaydi. Bu holat oilaviy takaful uchun katta yashirin talabni anglatadi. Xalqaro tajriba asosida prognoz qilinishicha, to'g'ri tartibga solish va samarali marketing tizimi sharoitida O'zbekiston oilaviy takaful bozori besh yil ichida 100–150 million dollar hajmiga yetishi mumkin. Bu ko'rsatkich amaldagi sug'urta bozorining kengayishiga sezilarli hissa qo'shadi.

Biroq muvaffaqiyatli amalga oshirishning bir nechta shartlari mavjud. Birinchisi — diniy legimitlik: O'zbekiston Muslmonlar idorasi bilan hamkorlikda mahsulotlarning shariat me'yorlariga muvofiqligi rasmiy tasdiqlangan bo'lishi zarur. Ikkinchisi — aholi savodxonligi: oilaviy takafulni an'anaviy sug'urtadan farqini keng ommaga tushuntirish uchun maqsadli moliyaviy savodxonlik dasturlari kerak. Uchinchisi — kadrlar tayyorlash: O'zbekistonda shariat moliyasi va takaful sohasida malakali mutaxassislar tanqis bo'lib, universitetlar va kasbiy ta'lim tizimida bu yo'nalish bo'yicha maxsus kurslar joriy etilishi zarur.

## **7. MUHOKAMA VA XULOSALAR**

Mazkur tadqiqot O'zbekistonda oilaviy takaful institutini joriy etishning huquqiy, institutsional va iqtisodiy jihatlarini tahlil qilish asosida bir qator muhim ilmiy hamda amaliy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, O'zbekistonda 2026-yilda qabul qilingan "Islomiy moliyalashtirish to'g'risida"gi O'RQ–1058-son Qonun mamlakatda islom moliyasining huquqiy asoslarini yaratish yo'lida muhim qadam bo'lsa-da, mazkur hujjat asosan bank faoliyati va islomiy moliyalashtirish operatsiyalarini tartibga solishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, takaful, ayniqsa oilaviy takaful faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari — risklarni o'zaro taqsimlash, tabarru' fondlari, shariat nazorati, operator va ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar hamda surplus (ortiqcha mablag')ni taqsimlash mexanizmlari — alohida huquqiy tartibga solishni talab etadi. Shu sababli mavjud qonunchilikka qo'shimcha ravishda takaful faoliyatini tartibga soluvchi maxsus normativ-huquqiy baza ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ikkinchidan, mintaqaviy tajribalar tahlili Qirg'iziston modelining O'zbekiston uchun eng amaliy va moslashuvchan yondashuvlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Qirg'izistonda dastlab amaldagi sug'urta qonunchiligiga takaful faoliyatiga oid normalar kiritilib, keyinchalik amaliyotda takaful oynalari (Islamic Insurance Window) tashkil etildi va litsenziyalash mexanizmlari bosqichma-bosqich joriy qilindi. Bunday evolyutsion yondashuv bozor ishtirokchilariga yangi tizimga moslashish

imkonini beradi hamda davlat uchun ortiqcha normativ va institutsional xarajatlarni kamaytiradi. O'zbekiston sharoitida ham dastlab sug'urta qonunchiligiga tegishli o'zgartirishlar kiritish, keyinchalik esa alohida takaful qonunini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, tadqiqot natijalari takafulni faqat diniy motivatsiyaga asoslangan sug'urta mexanizmi sifatida talqin qilish yetarli emasligini ko'rsatadi. Xalqaro tajriba, xususan Malayziya, Indoneziya va Fors ko'rfazi mamlakatlari amaliyoti oilaviy takafulning moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish, uzoq muddatli jamg'armalarni shakllantirish, aholining sug'urta madaniyatini oshirish va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. O'zbekiston aholisining katta qismini yoshlar tashkil etishini hisobga olganda, oilaviy takaful mahsulotlari uzoq muddatli jamg'arma va investitsiya vositasi sifatida ham muhim iqtisodiy funksiyani bajarishi mumkin.

To'rtinchidan, takaful tizimini muvaffaqiyatli joriy etishda institutsional hamkorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, sug'urta bozorini tartibga soluvchi vakolatli organlar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP), O'zbekiston musulmonlari idorasi, tijorat sug'urta tashkilotlari hamda ilmiy-ekspert doiralari o'rtasidagi samarali hamkorlik takaful mahsulotlariga nisbatan jamoatchilik ishonchini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Qirg'iziston va Malayziya tajribasi shuni ko'rsatadiki, shariat nazorati institutlari va davlat regulyatorlari o'rtasidagi muvofiqlashtirilgan faoliyat bo'lmasa, takaful mahsulotlarining shariat talablariga mosligi bo'yicha ishonchli tizimni yaratish qiyinlashadi.

Beshinchidan, tadqiqot davomida Markaziy Osiyo mamlakatlari va Ozarbayjon tajribasining qiyosiy tahlili amalga oshirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, mintaqada takaful rivojlanishining turli modellari mavjud. Qirg'iziston amaliy joriy etish bosqichiga o'tgan bo'lsa, Qozog'iston AIFC platformasi orqali rivojlanishni davom ettirmoqda. Tojikiston va Ozarbayjonda esa islom bankchiligi nisbatan faol rivojlangan bo'lsa-da, takaful sektori hali shakllanish bosqichida qolmoqda. O'zbekiston ushbu tajribalardan foydalanib, mavjud xatolarni takrorlamasdan va muvaffaqiyatli amaliyotlarni moslashtirgan holda milliy modelni ishlab chiqish imkoniyatiga ega.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda O'zbekiston sharoitida oilaviy takafulni joriy etish imkoniyatlari Markaziy Osiyo va qo'shni mamlakatlar tajribasi bilan qiyosiy tahlil asosida baholandi hamda mamlakatning huquqiy va institutsional muhitiga moslashtirilgan konseptual regulyatorlik modelining asosiy elementlari ishlab chiqildi. Shuningdek, O'RQ-1058-son Qonunning qabul qilinishi fonida takaful faoliyatini tartibga solish bilan bog'liq mavjud huquqiy bo'shliqlar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan amaliy tavsiyalar taklif etildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O'zbekistonda oilaviy takaful institutini joriy etish uchun zarur huquqiy va institutsional shart-sharoitlar shakllanayotganini ko'rsatadi. Biroq ushbu yo'nalishning barqaror rivojlanishi uchun maxsus takaful qonunchiligini ishlab chiqish, shariat nazorati tizimini institutsional darajada mustahkamlash, mutaxassislar tayyorlash hamda aholining islomiy sug'urta mahsulotlari bo'yicha moliyaviy savodxonligini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, oilaviy takaful nafaqat islom moliyasi tizimining tarkibiy qismi, balki O'zbekistonda moliyaviy inklyuzivlik va uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi istiqbolli mexanizmlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

## **8. XULOSA**

Mazkur tadqiqot O'zbekistonda oilaviy takaful institutini joriy etishning huquqiy, institutsional va iqtisodiy asoslarini o'rganish hamda mintaqaviy va xalqaro tajribalarni qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oilaviy takaful nafaqat islom moliyasi tizimining muhim tarkibiy qismi, balki moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish, aholining sug'urta xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi istiqbolli vosita hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida oilaviy takafulni rivojlantirishning dolzarbligi bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, aholining muayyan qismi diniy e'tiqodlari sababli an'anaviy sug'urta mahsulotlariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lmoqda. Ikkinchidan, mamlakatda moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini yanada oshirish va aholini uzoq muddatli jang'arma mexanizmlariga jalb etish zarurati mavjud. Uchinchidan, 2026-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining islomiy moliyalashtirishga oid qonunchilik hujjatlari mamlakatda islom moliyasi ekotizimini shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Biroq amalga oshirilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, amaldagi normativ-huquqiy bazada takaful va oilaviy takaful faoliyatini tartibga solishga oid alohida mexanizmlar hali to'liq shakllanmagan.

Tadqiqot davomida Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston va Ozarbayjon tajribalari o'rganildi. Qiyosiy tahlil natijalari Qirg'izistonning bosqichma-bosqich joriy etish modeli, Qozog'istonning xalqaro moliya markazi orqali rivojlanish tajribasi hamda Malayziyaning kompleks tartibga solish tizimi O'zbekiston uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Ayniqsa, dastlab amaldagi sug'urta qonunchiligiga takaful normalarini integratsiya qilish, keyinchalik esa maxsus qonunchilik bazasini shakllantirish yondashuvi eng maqbul variantlardan biri sifatida baholandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- amaldagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunga takaful va oilaviy takaful tushunchalari, ularning asosiy tamoyillari hamda faoliyat mexanizmlarini kiritish;

- O‘zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (NAPP) tomonidan takaful operatorlari faoliyatini litsenziyalash, minimal kapital talablari, shariat nazorati va hisobot standartlarini belgilovchi maxsus normativ hujjatlarni ishlab chiqish;
- takaful mahsulotlarining shariat talablariga muvofiqligini ta’minlash maqsadida markazlashgan Shariat nazorati kengashini tashkil etish;
- davlat organlari, moliya institutlari, diniy tashkilotlar va ilmiy muassasalar o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish;
- oliy ta’lim muassasalarida islom moliyasi va takaful yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash dasturlarini kengaytirish;
- aholi o‘rtasida islomiy moliyaviy mahsulotlar bo‘yicha moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan targ‘ibot va ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish.

Shuningdek, tadqiqot davomida kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun bir qator istiqbolli yo‘nalishlar aniqlandi. Jumladan, O‘zbekiston aholisi orasida oilaviy takaful mahsulotlariga bo‘lgan talabni empirik usullar asosida baholash, oilaviy takaful va pensiya tizimi integratsiyasi imkoniyatlarini o‘rganish, shuningdek, raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektdan takaful faoliyatida foydalanish istiqbollari tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalar sifatida namoyon bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda oilaviy takafulni joriy etish uchun zarur huquqiy, institutsional va iqtisodiy shart-sharoitlar bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda. Islomiy moliyalashtirish bo‘yicha qonunchilikning qabul qilinishi, davlat organlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan tayyorgarlik ishlari hamda mintaqaviy tajribalarning mavjudligi ushbu yo‘nalishni rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Endilikda asosiy vazifa mavjud tashabbuslarni izchil normativ-huquqiy mexanizmlar bilan mustahkamlash, bozor infratuzilmasini shakllantirish va oilaviy takaful mahsulotlarini amaliyotga tatbiq etish orqali ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini ta’minlashdan iboratdir. Shu ma’noda, oilaviy takaful O‘zbekiston moliya tizimini diversifikatsiya qilish, moliyaviy inklyuzivlikni oshirish va aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qiluvchi istiqbolli institut sifatida baholanishi mumkin

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. AAOIFI. (2023). Shari'a Standard No. 26: Islamic Insurance (Takaful). Manama: Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions.
2. Alshammari, A. A., Altwijry, O., & Abdul-Wahab, A. (2024). Takaful: Chronology of establishment in 47 countries. PSU Research Review: An International Journal, 8(3), 671–705. <https://doi.org/10.1108/PRR-09-2021-0042>

3. Asia Plus. (2019). Tajik central bank grants license to the first full-fledged Islamic bank in Tajikistan. Dushanbe.
4. Central Bank of Azerbaijan. (2026). Islamic Finance Reform Package and Regulatory Framework Development. Baku.
5. Eurasian Development Bank. (2025). Islamic Finance in Central Asia: Growth Outlook and Development Prospects. Almaty.
6. Fitch Ratings. (2026). GCC Backing and Regulatory Reforms Driving Central Asia's Islamic Finance Growth. Retrieved from <https://www.fitchratings.com>
7. Fitch Ratings. (2026). Prospects for Islamic Finance Development in Central Asia and Azerbaijan. London.
8. Global Growth Insights. (2026). Which Are the Top 10 Takaful (Islamic Insurance) Companies in 2026? Retrieved from <https://www.globalgrowthinsights.com/blog/takaful-islamic-insurance-companies-1075>
9. Islamic Financial Services Board (IFSB). (2023). Islamic Financial Services Industry Stability Report 2023. Kuala Lumpur: IFSB.
10. Mavsiyya, K., et al. (2021). Family Takaful products: A comparative study of Malaysia and Indonesia. *Journal of Islamic Accounting and Business Research*, 12(4), 556–572.
11. Moody's Investors Service. (2025). Islamic Banking Windows to Launch in Azerbaijan in 2026. New York.
12. Mughal, Z. (2023). Islamic Finance is Growing Tremendously in Central Asia. *Financial IT*.
13. National Bank of Tajikistan. (2019). National Bank of Tajikistan has issued a license to the first Islamic bank in Tajikistan – OJSC Tavhidbank. Dushanbe.
14. O'zbekiston Respublikasi. (2026, 27-mart). «Islom bank faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-son Qonun. Toshkent.
15. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024, 26-iyul). Mikrofinans tashkilotlari tomonidan islom moliyalashtirish xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi Nizom (3536-son). Toshkent.
16. Qirg'iziston Respublikasi. (2024, 29-aprel). «Sug'urta va sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri. Bishkek.
17. Qirg'iziston Respublikasi Hukumati. (2026, mart). Islom (takaful), majburiy va annuitet sug'urtasiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi qaror. Bishkek.
18. Report.az. (2026). Fitch evaluates prospects for introduction of Islamic finance in Azerbaijan.
19. Spot.uz. (2025, 16-sentyabr). V Uzbekistane vnedryat islamskuyu bankovskuyu deyatel'nost'. Retrieved from <https://www.spot.uz>

- 20.Spot.uz. (2026, 5-fevral). Senat Uzbekistana odobril proekt zakona ob islamskom bankinge. Retrieved from <https://www.spot.uz>
- 21.UNDP & IsDB. (2023). Insuring a Sustainable Future: Building Climate Resilience Through Takaful. New York: UNDP.
- 22.UNDP IRFF. (2024). Takaful: Delivering Financial Resilience to 100 Million People by 2030. Retrieved from <https://irff.undp.org>
- 23.UNDP Uzbekistan. (2024, 6-dekabr). UNDP is opening new avenues for the Takaful insurance [Press release]. Retrieved from <https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases/undp-opening-new-avenues-takaful-insurance>
- 24.UNDP Uzbekistan. (2025, 1-iyul). Capacity increased in Takaful with the support of UNDP [Press release]. Retrieved from <https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases/capacity-increased-takaful-support-undp>
- 25.UzDaily. (2026, may). Islamic Finance in Central Asia Poised for Growth Outlook. Retrieved from <https://www.uzdaily.uz>
- 26.World Bank. (2024). Global Findex Database 2024. Washington, D.C.: World Bank.
- 27.Zokirov, L. (2024). Takaful bozorini rivojlantirish va minimal zarur qonunchilik bazasi [Ma'ruza matnlari]. Toshkent: NAPP.